



STABILITY IN AFGHANISTAN IS THE FOUNDATION OF CENTRAL ASIA'S SECURE DEVELOPMENT

Bakhodir Nurillayevich Omonov

Head of the Department of Social Sciences

Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Shahrisabz State Pedagogical Institute

E-mail: bakhodiron@gmail.com

Shahrisabz, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Afghanistan, stability, Central Asia, security, development, regional cooperation, peace process, economic integration, counter terrorism, cross border cooperation.

Abstract: The article highlights the opportunities for accelerating and implementing the development of Central Asian countries by establishing lasting peace in Afghanistan. Existing problems, strategic tasks, and the social, political, and geopolitical characteristics of regional geostrategic cooperation are analyzed scientifically.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

AFG‘ONISTONDAGI BARQARORLIK – MARKAZIY OSIYO XAVFSIZ TARAQQIYOTINING ASOSI

Bahodir Nurillayevich Omonov

Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri

f.f.d (DSc), professor

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

E-mail: bakhodiron@gmail.com

Shahrisabz, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlari: Afg‘oniston, barqarorlik, Markaziy Osiyo, xavfsizlik, taraqqiyot, mintaqaviy hamkorlik, tinchlik jarayoni, iqtisodiy integratsiya, terrorizmga qarshi kurash, transchegaraviy hamkorlik.

Annotasiya: Maqolada Afg‘onistonda doimiy tinchlikni o‘rnatish orqali Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari taraqqiyotini tezlashtirish va amalga oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Mavjud muammolar, strategik vazifalar, mintaqadagi geostrategik hamkorlikning ijtimoiy, siyosiy va geosiyosiy xususiyatlari ilmiy tahlil qilingan.

СТАБИЛЬНОСТЬ В АФГАНИСТАНЕ — ОСНОВА БЕЗОПАСНОГО РАЗВИТИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Баходир Нуриллаевич Омонов

Заведующий кафедрой социальных наук

Доктор философских наук (DSc), профессор

Шахрисабзский государственный педагогический институт

E-mail: bakhodiron@gmail.com

Шахрисабз, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Афганистан, стабильность, Центральная Азия, безопасность, развитие, региональное сотрудничество, мирный процесс, экономическая интеграция, борьба с терроризмом, трансграничное сотрудничество.

Аннотация: В статье освещены возможности ускорения и реализации развития стран Центрально-Азиатского региона посредством установления постоянного мира в Афганистане. Научно проанализированы существующие проблемы, стратегические задачи, а также социальные, политические и геополитические особенности регионального геостратегического сотрудничества.

Kirish. Endigina mustaqillikni qo‘lga kiritgan davlatlar oldida turgan muammolarni bartaraf etish choralari xalq va davlat munosabatlarning o‘zaro yakdilligi, tinimsiz mehnati, ishlab chiqilgan ichki va tashqi strategik konsepsiyalarning nechog‘lik ijtimoiy hayot bilan bog‘langani, millatning o‘zligini anglagan holda zamonga hamohang intilishi asosida kechadi. Bu jarayon juda og‘ir qiyinchiliklar va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshadi.

Agar mustaqillikka erishgan davlatlar atrofida urush o‘chog‘iga aylangan, notinch hududlar mavjud bo‘lsa, muammoning ko‘lami qanchalik og‘irligini tasavvur etishning o‘zi tahlikaga soladi. Markaziy Osiyo mintaqasi ham mana shunday muammolar girdobiga qurshalgan hududlar jumlasiga kiradi. Bunga sabab — umumiy hisobda bir asrdan ziyod Chor Rossiyasi va sobiq SSSR tarkibida mustamlakachilik siyosati ta’sirida qoloqlashtirilgan, mustaqillikdan keyin esa geosiyosiy kuchlarning shartli ta’siri ostida qolayotgan bo‘lsa; ikkinchi tomondan, mintaqada uzoq yillardan buyon qurolli to‘qnashuv davom etayotgan hamda tashqi kuchlarning nazorat maydoniga aylangan davlatning mavjudligidir.

Afg‘oniston mana shunday nazorat ta’siriga tushgan hududga aylangan, ammo keyingi yillarda biroz barqaror tizimning shakllanib borayotgani Markaziy Osiyodagi taraqqiyotning tezlashishiga xizmat qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuning turli jihatlarini, jumladan, mintaqaviy munosabatlarni rivojlantirish va Afg‘onistonda tinchlikni ta’minlash borasidagi muammolar

mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev va Birinchi Prezident I.Karimov asarlarida to'liq aks etgan. Mintaqaviy integratsiyani shakllantirish bilan bog'liq jarayonlar S.G'afurov, Sh.G'oyibnazarov, G.Ochilova, A.Qo'ldoshev, B.Omonov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuning mohiyatini yoritishda tarixiylik, tahlil, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, qiyosiy tahlil kabi mantiqiy uslublardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Afg'onistonda notinch vaziyatning shakllanishi nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasida, balki butun dunyoda eng murakkab tashqi siyosiy muammolardan birini tashkil etadi. Buning sababi, eng avvalo, "bufer davlat" deb ta'riflash mumkin bo'lgan ushbu mamlakatning siyosiy maqomida yashiringan. Afg'oniston XIX asr oxiridayoq shunday holatga tushib qolgan edi. O'shanda bu mamlakat dunyo zo'rlarining siyosiy o'yinlari tufayli Rossiya va Britaniya imperiyalarini ajratib turadigan hududga aylandi.

Rossiya va Britaniya o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra, Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan nazorat qilinadigan hududlari bilan Afg'onistonning shimoliy va shimoli-g'arbiy chegaralari belgilab olindi. Mustaqil Afg'onistonni Britaniya Hindistoni hududidan ajratib turuvchi janubi-sharqiy chegara ham aynan shu shartnomada belgilandi [4; 171–172]. Shu tariqa Afg'oniston ikki imperiya girdobida qoldi.

Ikkinchi jahon urushining tugashi va sovuq urush davri boshlanishi bilan Britaniya hududdan chekindi, ammo sobiq SSSR uchun yangi raqib — AQSH maydonga chiqdi. SSSRning parchalanishi esa boshqa siyosiy kuchlarning Afg'onistonda to'planishiga zamin yaratdi va yangi ming yillikda ham geosiyosiy ta'sirini davom ettirmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishgandan buyon xavfsizlik, o'zaro hamkorlik, savdo-sotiq, transport kommunikatsiyasi va iqtisodiy jarayonlarni jadallashtirishga katta mablag' sarflab kelmoqda. Aslida bu sarf-xarajatlarni ancha qisqartirish mumkin. Iqtisod qilingan mablag'ni eng muhim sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirishning strategik varianti — bu Afg'onistonda doimiy tinchlikni o'rnatishdir.

Mintaqa davlatlari mustaqillikning ilk yillaridan boshlab Afg'onistonda tinchlikni qaror toptirishdan manfaatdor ekanliklarini bildirgan va bu muammolarni bartaraf etishda xalqaro hamjamiyatning e'tiborini jalb etish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Mintaqaning bugungi va kelajakdagi geosiyosiy strategiyasining asosiy vazifalaridan biri — Afg'onistonda ichki barqarorlikni ta'minlash jarayonlariga ko'maklashishdir. Chunki mintaqa davlatlarining jahon bozoriga erkin chiqishi va iqtisodiy rivojlanishi Afg'onistonda xavfsizlikning o'rnatilishiga bevosita bog'liqdir.

Birinchidan, Afg'oniston mintaqa uchun katta bozor va yirik xomashyo mahsulotlariga ega hududdir. 40 milliondan ortiq aholi istiqomat qilishi kundalik ehtiyoj mollari va barcha turdagi mahsulotlarga bo'lgan talabni keskin oshiradi. Mamlakat mavjud xomashyolarni qayta ishlashga

qodir emas, natijada barcha xomashyo mahsulotlari ichki va tashqi kuchlar tomonidan talon-taroj qilinmoqda. Aynan Markaziy Osiyo mamlakatlarining Afgʻoniston bilan koʻp tomonlama hamkorlik olib borishi katta manfaatli natijalarga erishishni taʼminlaydi. Oʻzbekistonning Afgʻoniston bilan savdo va koʻp qirrali aloqalari mintaqa davlatlari oʻrtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikdan ham koʻproq daromad berishi mumkin. Chunki Afgʻoniston aholisining soni mintaqaning toʻrtta davlati umumiy aholisi bilan deyarli barobar. Oʻzbekistonda ishlab chiqarilayotgan barcha mahsulotlarga Afgʻonistonda talab mavjud. Agar hamkorlik aniq va toʻgʻri yoʻnaltirilgan dastur asosida amalga oshirilsa, kelgusi bir necha oʻn yillik davomida mintaqada davlatlari isteʼmolidan uch-toʻrt hissa koʻproq mahsulot sotish imkoniyati yuzaga keladi hamda Oʻzbekiston iqtisodiyoti jadal surʼatlarda rivojlanish imkoniga ega boʻladi.

Ikkinchidan, Afgʻoniston mintaqa davlatlarining “iliq dengizlar” orqali jahon bozoriga qisqa yoʻldan chiqish imkoniyatini taʼminlovchi hududdir. Mintaqa davlatlarining jahon xoʻjalik aloqalariga qoʻshilishiga xizmat qiladigan yangi transport kommunikatsiyalarining ochilishida Afgʻoniston asosiy geostrategik boʻgʻindir [3; 29]. Markaziy Osiyo davlatlarining jahon bozoriga chiqish yoʻlaklari hozircha ancha noqulay. Oʻzbekiston, Qirgʻiziston va Tojikiston dengiz savdo yoʻlidan uzilgan. Ushbu mamlakatlarning dengizga toʻgʻridan-toʻgʻri qisqa yoʻldan chiqish imkoniyati aynan Afgʻoniston hududi orqali amalga oshirilgan taqdirda eng yaxshi natija beradi.

Uchinchidan, mahsulotlarni yetkazib berish xarajatlarini kamaytirish bilan bogʻliq masaladir. Maʼlumki, mintaqada mamlakatlarining asosiy muammolaridan biri — jahon savdo tizimi bilan aloqalarning murakkabligidir. Transport kommunikatsiyalari sobiq Ittifoqning bir yoqlama tobelikni abadiylashtirish siyosati asosida shakllantirilgan boʻlib, bugungi kunda rivojlanishga qarshi “meva” bermoqda. Bundan mintaqaning deyarli barcha davlatlari zarar koʻrmoqda. Faqat Qozogʻistonning geografik joylashuvi ayrim hollarda boshqa davlatlarga nisbatan qulayroq. Oʻzbekiston esa mahsulotlarni chetga chiqarish uchun Qozogʻiston va Rossiya hududlari orqali oʻtishga majbur. Natijada davlatning asosiy savdo yoʻnalishlari aynan shu mamlakatlar hissasiga toʻgʻri keladi. Bu jarayon tashqi siyosatda murakkablik, bojxona toʻlovlarining oshishi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Oʻzbekiston ishlab chiqarayotgan tabiiy mahsulotlarga jahon bozorida talab yuqoriligi sir emas. Ammo mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon bozoriga kirib borish tannarxi transport xarajatlari tufayli bir necha barobarga oshib ketmoqda. Yaʼni ishlab chiqarish tannarxiga nisbatan transport xarajatining keskin qimmatligi mahsulotlarga boʻlgan talabni pasaytirmoqda. Agar “Mozori-Sharif – Qobul – Peshavor” temir yoʻli loyihasi amalga oshirilsa yoki bundan 27 yil avval Xitoy va boshqa Osiyo davlatlariga chiqadigan temir yoʻl qurilganida, mamlakat mahsulotlarining tannarxi 60–70 foizga kamaygan boʻlar edi. Demak, Afgʻoniston

mintaqa mahsulotlarining jahon bozoriga arzon va tez kirib borishini ta'minlovchi hudud sifatida alohida ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, yangi bozorlarga kirib borish va ularda mustahkam o'rin egallash masalasidir. Afg'oniston yuqorida ta'kidlanganidek, juda katta xarid bozori hisoblanadi. Markaziy Osiyo davlatlari ishlab chiqarish sohasida rivojlangan davlatlardan ancha orqada. Ularning mahsulotlari jahon bozorida raqobatbardoshligini saqlash (qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan tashqari) ancha mushkul. Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmanistondagi ishlab chiqarish sohalari Qozog'iston va O'zbekistonga qaraganda sust rivojlangan. Hozirda jahon bozoriga mahsulotlarni chiqarishda ko'proq urinayotganlar Qozog'iston va O'zbekistondir. Qozog'istonning geografik joylashuvi mahsulotlarni eksport qilishda O'zbekistonga nisbatan qulayroq.

O'zbekiston uchun yangi bozorlarni zabt etishning eng maqbul yo'li — Afg'oniston orqali to'g'ridan-to'g'ri Pokiston va Hindiston bozorlariga chiqishdir. O'zbekiston mahsulotlarining Afg'oniston, Pokiston va Hindiston bozorlariga kirib borish mexanizmini shakllantira olsagina, mamlakat iqtisodiyotida tub burilish yuzaga keladi va boshqa xarid bozorlarini izlashga ehtiyoj qolmaydi. Chunki ushbu uch davlat aholisi O'zbekiston savdo aloqalari olib borayotgan davlatlar aholisidan bir necha o'n barobarga ko'p. Ijtimoiy jihatdan ham o'zbek mahsulotlari Afg'oniston, Pokiston va Hindiston aholisi iste'mol talablari bilan uyg'un keladi.

Beshinchidan, xavfsizlik uchun sarflanayotgan ortiqcha mablag'larni tejash va ularni ishlab chiqarishga yo'naltirish masalasi alohida ahamiyatga ega. Afg'onistondagi qurolli to'qnashuvning uzoq yillardan beri davom etishi va keskin tus olishi Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi tinchlik va xalq xotirjamligining qadrini chuqur anglashga majbur qiladi. Bu hol muammoning dolzarbligi va keskinligini yana bir bor yaqqol ko'rsatdi. Afg'onistondagi harbiy-siyosiy tanglik Markaziy Osiyodagi mintaqaviy barqarorlikka, jumladan O'zbekistonning milliy xavfsizligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Shu jihatdan olganda, Afg'onistonda doimiy barqarorlik ta'minlanmas ekan, Markaziy Osiyo davlatlarining birortasi o'zini xavfdan xoli deb hisoblay olmaydi va ishonch bilan rivojlanishga qat'iy qadam qo'ya olmaydi [3; 25–26].

Bu esa mintaqa mamlakatlarining asosiy xarajatlarini chegarani mustahkamlash, qurolli kuchlar sonini oshirish, harbiy texnikani modernizatsiya qilish kabi yo'nalishlarda ortiqcha sarf-xarajatlarga olib keladi. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab davlatlar asosiy mablag'larini mintaqadagi notinchlikdan himoyalashga yo'naltirishga majbur bo'ldi. Tojikistondagi ichki qarama-qarshilik yangi mingyillik boshlarida hal etildi va shu bois mamlakat Rossiya ko'magiga muhtoj bo'lib, uning siyosiy ta'sir doirasiga tushib qoldi. Qirg'izistonda esa ichki siyosiy kelishmovchilik yaqin yillargacha davom etib, mamlakatni mintaqaning eng nochor davlatiga aylantirdi. So'nggi uch-to'rt yil ichida Qirg'izistonda barqaror siyosiy tizim shakllanib, rivojlanish

jarayonida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Turkmaniston betaraf davlat bo'lsada, mintaqaviy mojarolar tufayli asosiy resurslarining bir qismini yo'qotmoqda.

O'zbekiston 1991 yildan 2002 yilgacha mintaqaviy mojarolarga eng ko'p mablag' (har yili bir necha yuz million AQSH dollari) sarflagan davlatlardan biridir. Bu holat AQSH qo'shinlarining Afg'oniston hududiga kirib kelishi va Xonobod aviabazasini ijaraga berish to'g'risidagi shartnoma imzolanganiga qadar davom etdi. Agar O'zbekiston Afg'oniston orqali shakllangan xavfsizlik tahdidlari tufayli sarflagan ortiqcha mablag'larni ishlab chiqarish korxonalari, ta'lim, tibbiyot sohalarini rivojlantirishga yo'naltirish imkoniga ega bo'lganida, bugungi kunda bir qator muammolar hal etilgan bo'lar edi. Bugungi kunda ham mintaqada davlatlari Afg'onistonda notinchlik yuzaga kelmasligidan manfaatdor, chunki aks holda xavfsizlikni ta'minlash borasida ortiqcha sarf-xarajatlar qilish xavfi mavjud.

Oltinchidan, narkobiznes, yashirin qurol savdosi, terrorizmni jilovlash va uyushgan jinoyatchilikning oldini olishda samaradorlikni ta'minlash muhimdir. Afg'oniston dunyo miqyosida eng ko'p narkotik moddalar yetishtiriladigan davlatlardan biridir. Buning asosiy sababi mamlakatdagi notinchlikdir. Narkotik moddalarni tashish yo'lagi Markaziy Osiyo davlatlari orqali o'tishi mintaqada uyushgan jinoyatchilik, narkobiznes, yashirin qurol savdosi kabi illatlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Afg'oniston bu illatlarning avj olishi uchun unumdor "bo'z yer"ga o'xshaydi. Chunki Afg'onistondagi mojaroda qatnashayotgan turli guruhlar uchun narkotik ishlab chiqarish va sotish qurol-yarog' xarid qilish hamda boylik orttirishning eng qulay manbaiga aylangan.

Natijada narkotik moddalar tobora ko'proq miqdorda Markaziy Osiyo davlatlari orqali G'arbgacha yetkazilmoqda. Ularning bir qismi mintaqada ichkarisiga ham "singib ketmoqda". Bu esa jinoyatchilikning o'sishiga, yoshlar ma'naviy tafakkurining buzilishiga, hatto millat genofondining yemirilishiga olib keladi. Shuningdek, Afg'oniston hududi va chegaralari nazorat qilib bo'lmaydigan qurol-yarog' zaxirasiga aylangan. Bunday sharoitda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi chegaralarning ochiqligi yanada xavf tug'diradi [3; 30–31]. Jinoiy guruhlarining faolligi ortishi, urush va nizolarda tajriba orttirgan qochoqlarning mintaqaga kirib kelishi va jinoiy faoliyatini davom ettirishga urinishlari ham xavfni kuchaytiradi. Eng yomoni, davlatlar ichidagi jinoiy guruhlarining xalqaro uyushgan jinoyat tarmoqlari bilan birlashishiga imkon tug'iladi.

Yettinchidan, mintaqaviy nizolarning oldini olish masalasi. Markaziy Osiyoda mintaqaviy ziddiyatlarning ta'siri hanuz sezilib turibdi. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab (1996–2016) Tojikiston va O'zbekiston, O'zbekiston va Turkmaniston (1994–2007), Qirg'iziston va O'zbekiston (1997–2021), Tojikiston va Qirg'iziston (1993–2021), Qirg'iziston va Qozog'iston o'rtasida turli darajadagi nizolar bir kuchayib, bir susayib davom etgan. Tojikistondagi ichki qarama-qarshilik o'tgan asr oxirigacha davom etdi. Farg'ona va O'sh ziddiyatlari 2010 yilda

ayanchli oqibatlarga olib kelgan. Tojikiston va Qirg'iziston xalqlari o'rtasidagi kelishmovchilik 2020, 2022 va 2023 yillarda ham davom etdi.

Afg'onistonda doimiy barqarorlik shakllanmasligi mintaqaviy nizolarni yanada kuchaytirishi mumkin. Mojarolarning davom etishi ba'zi manfaatdor kuchlarga "ajratib yuborilgan xalqlar" mojarosini shakllantirishga urinish imkonini beradi. Masalan, Afg'oniston chegarasining ikki tomonida yashovchi tojiklar yoki o'zbeklarni, yoki pushtun qabilalarini birlashtirish, chegaralarni qayta ko'rib chiqish kabi takliflarni ilgari surayotganlar shular jumlasidandir. Mavjud chegaralarni etnik asosda o'zgartirish yo'lidagi har qanday urinishning oqibatlarini tasavvur qilishning o'zi dahshatlidir. Bunday holat davlatlarning milliy iqtisodiyoti va xo'jalik aloqalariga jiddiy zarar yetkazadi. Bu esa mavhum gap emas, balki har bir fuqaro va jamiyat a'zosining aniq hisoblab ko'rsa bo'ladigan manfaatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi [3; 28–29].

Sakkizinchidan, xorijiy davlatlar qurolli kuchlarining hududda to'planishi va harbiy sinovlarga barham berishda. Afg'onistonda qurolli to'qnashuvning boshlanishi sovuq urushning avjiga chiqqan davrga to'g'ri keladi. Sobiq sovet qo'shinlarining mamlakat hududiga kirishi uni o'ta kuchli bo'lmagan qurollarni sinovdan o'tkazadigan maydonga aylantirdi. Qiruvchi samolyotlar, harbiy vertolyotlar va o't ochar qurollarning yangi versiyalari Afg'oniston hududiga jo'natildi. AQSH ham bunga javoban muxolifat kuchlarini qurollantirish jarayonini jadallashtirdi. Ikki qutbning asosiy maqsadi mudofaa majmualari va hujumkor texnologiyalarni bir-biriga qarama-qarshi hududlarga yaqinlashtirish edi. Sobiq sovet qo'shinlarining mamlakatdan chiqib ketishi qurol-yarog' kirib kelishini to'xtatmagan. Saudiya Arabistoni, Pokiston, Turkiya, Eron va NATOga a'zo davlatlarning faol harakatlari kuchaydi. 2001 yildan boshlab hududga AQSHning hujumkor texnologiyalari kiritildi. Unga qarshi boshqa gegemon kuchlarning yashirin qurollari sinovdan o'tkazilgani ham sir emas.

To'qqizinchidan, mintaqada geosiyosiy ixtiloflar va xurujlarning oldini olishda. Markaziy Osiyo mamlakatlari dunyo siyosiy kuchlarining diqqat markazida turibdi. Mintaqa davlatlarining qaysi yo'lni tanlashi hanuz aniq emas. Bir davlatga yon bosilsa — boshqasi, boshqasiga yon bosilsa — yana boshqa kuchlarning ta'sir doirasi kengaymoqda. Afg'oniston bilan Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston chegaradosh bo'lgani sababli, Afg'onistondagi muxolif guruhlar, terroristik tuzilmalar va jinoiy uyushmalar ushbu mamlakatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Afg'onistonda qarama-qarshi guruhlar nihoyatda ko'p bo'lib, ular ko'pincha qaysi siyosiy kuchning homiyligiga bog'liq. Shu sababli birinchi, ikkinchi, uchinchi va boshqa siyosiy markazlarning ta'siri mintaqada davlatlari uchun juda xavfli. Qirg'izistonda siyosiy beqarorlik oqibatida diniy-ekstremistik uyushmalar keng joylashgan edi. Qozog'istonda ham turli jinoiy va ekstremistik guruhlar mavjud bo'lib, ularning ta'siri sezilarli. Bu mojarolar avvalgi ikki qutbli

tuzum davrida “bostirilgan” bo‘lsa, bugungi ko‘p qutbli tizim shakllanishi jarayoni muammolarni yanada murakkablashtirishi mumkin.

O‘ninchidan, mintaqada integratsiyani rivojlantirish jarayonini tezlashtirishda. Afg‘onistonda tinchlikning doimiy o‘rnatilishi mintaqa davlatlari integratsiyasining jadallashuviga xizmat qiladi. Chunki mintaqa davlatlarining xalqaro transport-kommunikatsiya yo‘laklari bir-birining hududidan o‘tadi. Muqobil yo‘nalish topish esa murakkab. Shu bois turli siyosiy bosimlar paydo bo‘lib, integratsiya jarayoniga to‘sqinlik qilmoqda. Afg‘onistonda barqarorlikning mavjudligi xalqaro transport-kommunikatsiya yo‘laklarining muqobil variantini yaratadi. Muqobil variantlarning ko‘pligi mintaqa davlatlari hamjihatligini mustahkamlaydi.

O‘zbekiston siyosati aynan chegaradosh mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘shnichilik tamoyillariga asoslanadi. Shu sababli O‘zbekiston Afg‘onistonda doimiy tinchlik va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlashdan eng ko‘p manfaatdor mamlakatdir. Birinchi galdagi vazifalardan biri — Afg‘onistonning mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga qo‘shilishiga ko‘maklashishdir [1; 269]. Afg‘oniston Markaziy Osiyo mintaqasining uzviy bir qismidir. O‘zbekistonning ushbu mamlakatni tinchlik va taraqqiyot yo‘liga olib chiqish yo‘lidagi sa‘y-harakatlari umumiy manfaatlariga to‘la mos keladi. Shuningdek, Afg‘onistonda muhim infratuzilma va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish, uni mintaqaviy savdo-iqtisodiy aloqalarga jalb etish bo‘yicha muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish nihoyatda muhimdir [2; 273]. Chunki Afg‘oniston dunyoning eng zaif rivojlanayotgan, agrar soha ustun bo‘lgan ko‘p ukladli iqtisodiyotga ega davlatlardan biridir. Uning moddiy xomashyo bazasi boy bo‘lsa-da, yetarli darajada o‘rganilmagan [5; 193–194]. Shu sababli ko‘plab geosiyosiy kuchlarning hududga qiziqishi ortib bormoqda.

O‘zbekiston va Afg‘oniston yaqin chegaradosh davlatlardir. Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida hamkorlik uchun katta imkoniyatlar mavjud. Azaldan o‘zbek va afg‘on xalqlarini ko‘p asrlik umumiy tarix, muqaddas islom dini, madaniy-ma‘naviy yaqinlik, yaxshi qo‘shnichilik va azaliy birodarlik rishtalari birlashtirib keladi [2; 250]. Yangi mingyillikda Afg‘onistonning O‘zbekiston bilan savdo va iqtisodiy hamkorligi yanada kuchayishi kutilmoqda. O‘zbekiston ham tashqi siyosatda Afg‘oniston kabi istiqbolli yo‘nalishlarda qisqa muddatli samarali dasturlarni ishlab chiqishi orqali bu imkoniyatdan foydalanishi zarur. Afg‘oniston O‘zbekiston iqtisodiyotining tez rivojlanishi uchun muhim hudud bo‘lib, jahon bozoriga qisqa yo‘ldan chiqishning muqobil variantidir. Shunga ko‘ra, Afg‘onistonning iqtisodiy tiklanishi, uning transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirish, milliy kadrlarni tayyorlashga doir loyihalarga bundan buyon ham [1; 251] amaliy yordam ko‘rsatishni kengaytirish zarur.

Buning uchun: birinchidan, O‘zbekiston afg‘on ishbilarmonlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri tadbirkorlik faoliyatini olib borishi uchun juda keng imkoniyatlar yaratishi; ikkinchidan, afg‘on

mulkdorlarining O'zbekistondan uy-joy sotib olishi (yoki qurishi) va belgilangan miqdorda valyuta kiritishi evaziga kamida besh yilgacha yashash huquqi hamda daxlsizlik kafolatini berish; uchinchi, afg'on aholisini ichki turizmga keng jalb etishga doir qisqa va istiqbolli dasturlarni ishlab chiqish.

To'rtinchidan, afg'on yoshlarini ta'lim olish va kasb-hunarga tayyorlash, oliy ta'lim muassasalariga kengroq jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlarni qayta ko'rib chiqish; beshinchidan, Afg'onistonda o'zbek madaniyatini keng targ'ib qilish va o'zbek maktablarining ko'payishiga ko'maklashish; oltinchidan, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni afg'on aholisi uchun arzon narxda yetkazib berish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa. Afg'oniston Markaziy Osiyoning ajralmas qismi bo'lib, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasida muhim davlat hisoblanadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari ham Afg'onistonda tinchlikning o'rnatilishidan manfaatdordir. Chunki mintaqada davlatlari uchun Afg'onistonda doimiy tinchlik o'rnatilmas ekan, barqaror rivojlanish jarayoni juda sekin kechishi ma'lum.

Markaziy Osiyo davlatlari Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash yo'lida barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirib bo'layapti. Ushbu sohada kengroq natijaga erishish uchun:

birinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida teng huquqli, Afg'onistondagi barqarorlikni doimiy ta'minlashga xizmat qiladigan institutni shakllantirish hamda tinch yo'l bilan hal etishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish;

ikkinchidan, Markaziy Osiyo mintaqasining geografik hududiga Afg'oniston hududini to'raligicha kiritish;

uchinchidan, mintaqaning beshta davlati va Afg'oniston ishtirokida Markaziy Osiyo hamkorligi tashkilotini qayta tiklash va uning faoliyatini kuchaytirish;

to'rtinchidan, Afg'onistonda muhim infratuzilma va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, ushbu mamlakatni mintaqaviy savdo-iqtisodiy aloqalarga faol jalb etishga qaratilgan muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish qulay imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir: 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 508 b.
2. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari: 4-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 456 b.
3. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B. 28–29.
4. G'oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – B. 171–172.

5. Gʻafurov S. Xavfsizlik strategiyasi: Markaziy Osiyo respublikalari va Fors koʻrfazi arab davlatlari amaliyoti. – Toshkent, 2007. – B. 193–194.
6. Omonov B. N. Markaziy Osiyo mamlakatlarida mintaqaviy integratsiya – muammolar yechimining asosiy omili // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*. – 2024. – T. 4, №21. – B. 529–535.